Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	

İQTİSODİYOT EKONOMİKA ESONOMU



Shoey Alim Xalmuratovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: alim_shoev@mail.ru

ORCID: 0000-0003-2289-9582

Ключевые слова: цифровизация, инклюзивное образование, лица с ограниченными возможностями, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии.



KIRISH

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishi ifodasi sifatida mamlakatlar BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”dan kelib chiqqan holda, oʻz taraqqiyot yoʻllariga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqib, ularni hayotga izchil joriy qilmoqdalar. Barqaror rivojlanish maqsadlari taʼlim sohasini rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida eʼtirof etib, uning alohida toʻrtinchi maqsadi sifatida “Har tomonlama va adolatli sifatli taʼlimni taʼminlash hamda barcha uchun umr davomida taʼlim olish imkoniyatlarini ragʻbatlantirish” ajratib koʻrsatiladi.

Mazkur maqsadga erishishda koʻplab yoʻnalishlar qatorida, oliy taʼlim muassasalarida inklyuziv taʼlimni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ushbu holat taʼlim tizimini inklyuziv yondashuv asosida rivojlantirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Oliy taʼlimda inklyuziv taʼlimni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlar alohida tadqiqot yoʻnalishi sifatida xorijlik olimlar J.E. Carins, C. Cupitt, Z. Debra, S. Friere, M.C. Fokina, R.S. Kaplan, D.P. Norton, S. Marginson, K.V. Makkleyn-Nxlapo, B. Myuller, M. Oliver, J. Reinhardt, R. Russell-Bennett, Salmi ¹ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Taʼlim muassasalari faoliyatini boshqarishda axborot tizimlarining joriy etilishi, katta ehtimol bilan aytish mumkinki, taʼlim infratuzilmasini raqamli transformatsiyalash borasidagi eng katta yutuqlardan biri sanaladi. Aynan imkoniyati cheklangan shaxslarning umumiy taʼlim muassasalarida tengdoshlari qatori bilim olishida raqamli texnologiyalar muhim omil sifatida eʼtirof etiladi.

Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi Konvensiyaga (2006–y.) koʻra, “universal dizayn – barcha odamlar uchun moslashtirish yoki maxsus dizaynni talab etmaydigan holda eng yuqori imkoniyat darajasida yarakli qilishga daʼvat etilgan buyumlar, sharoitlar, dastur va xizmatlar dizaynini anglatadi”².

Jamiyatning barcha sohalarida texnika vositalari va axborot texnologiyalarini izlashga eʼtibor qaratish – zamonning muhim vazifalaridan biri ekanligini taʼkidlash lozim. Bu omil inklyuziv taʼlimga qoʻyiladigan yangi talablarni belgilab beradi hamda uni amalga oshirish uchun amaliy yoʻllarni taklif etadi. Bu esa alohida taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan shaxslar uchun taʼlim berish samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi³.

Oliy taʼlimning davlat taʼlim standartlaridan kelib chiqqan holda, inklyuziv taʼlim sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish bir qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi⁴.

Inklyuziv taʼlimni raqamlashtirishning ijobiy jihatlar – “alohida taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan shaxslarga jamiyatga muvaffaqiyatli qoʻshilish imkonini beradigan kompetensiyalarga ega boʻlishlari yoʻlida keng imkoniyatlarni taqdim etishda” namoyon boʻladi⁵.

“Vizual, eshitish, nutq, tayanch-harakat tizimidagi nuqsonlar, kognitiv va nevrologik kasalliklarga chalingan talabalar uchun veb-qulaylik muhim ahamiyat kasb etishi, veb-qulaylik hayot va sogʻliqning vaqt va yosh xususiyatlari (singan qoʻl, qarilik), atrof-muhit sharoitlari (shovqinli xona, yorugʻlik), qurilmalarining texnik oʻlchamlari hamda internet oʻtkazuvchanligi cheklanganligi (kichik ekranli mobil qurilmalar, sust internet aloqasi)

1 Armstrong F. Action Research for Inclusive Education, Prentice Hall. 2004.; Carins J.E. & Rundle-Thiele, S. (2013). Eating for the better: A social marketing review (2000-2012). Public Health Nutrition, 1-12; Cupitt C., Costello D., Raciti M. and Eagle, L. (2016). Social Marketing Strategy for Low SES Communities: Position Paper. National Centre for Student Equity in Higher Education, Perth.; Debra Z. Basil, Gonzalo Diaz-Meneses, & Michael D.Basil. (2019). Social Marketing in Action: Cases From Around the World (Vol. 1st ed. 2019). Springer.; Freire C. et. al. The potential of distance education for the inclusion of students in higher education // Determining the Reliability of Online Assessment and Distance Learning. Handbook of Research. Hershey, PA, USA, 2020. P. 379–401.; Фокина М.С. Проблемы и перспективы инклюзивного образования в условиях цифровизации // Студенческий электронный журнал СТРИЖ. 2021. № 2–1 (37). С. 82–84.; R.S.Kaplan and D.P.Norton, The Balanced Scorecard: Measures That Drive Performance. - Harvard Business Review, January-February 1992, 7179.; Marginson S. The worldwide trend to high participation higher education: Dynamics of social stratification in inclusive systems //Higher education. – 2016. – Т. 72. – С. 413-434.; Маккейн-Нхлапо К.В., Сивонен, Л.А., Раджа Д.С., Палуммо С.Акул, Э. 2022. Система включения инвалидов и подотчетности. Вашингтон, округ Колумбия: Группа Всемирного банка. Доступно по адресу: <http://documents.worldbank.org/curated/en/437451528442789278/Disability-inclusion-and-accountability> framework.; Oliver M. The Politics of Disability. L.: Macmillan, 1990; Oliver M., Barnes C. Disabled People and Social Policy. From Exclusion to Inclusion. L., N.Y.: Longman, 1998.; Muller B., Reinhardt J. Neural Networks. An introduction. — Berlin: Springer*Verlag, 1991. - 266p.; Russell-Bennett R., Drennan, J. & Raciti, M.

2 www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.html

3 Рассказов Ф.Д., Мюллер О.Ю., Ротова Н.А. Кластерный подход в инклюзивном образовании лиц с особыми образовательными потребностями // Инклюзивное образование: теория и практика: сб. материалов Международной науч.-практ. конференции. Орехово-Зуево, 2016. С. 247–253.

4 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug'ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning davlat standartlari (asosiy qoidalar)"

5 Фокина М.С. Проблемы и перспективы инклюзивного образования в условиях цифровизации // Студенческий электронный журнал СТРИЖ. 2021. № 2–1 (37). С. 82–84.



shaxslar uchun ham foydali hisoblanishini⁶ aniqlagan.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishda veb-qulaylik masalalari "xorijiy nashrlarda yetarlicha va batafsil muhokama qilingan".

"Veb-qulaylik (ingl. Web-accessibility) – veb-resurslar, veb-texnologiyalar va internet vositalaridan imkoniyati cheklangan shaxslar foydalanishi mumkin bo'lgan tarzda ishlab chiqish tartibini nazarda tutadi"⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi — nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir. Ma'lumotlar 2024-yilning yanvar–mart oylarida Sirdaryo viloyatining turli tumanlarida yashovchi fuqarolar o'rtasida o'tkazilgan dala so'rovi orqali yig'ilgan bo'lib, so'rovda jami 100 nafar imkoniyati cheklangan yoshlar ishtirok etgan. Ularning fikr-mulohazalari asosida asosiy muammolar va to'siqlar aniqlanib, chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, klaster tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va tahlil etish, shuningdek, ekonometrik tahlil kabi kompleks metodlardan foydalanilgan. Ilmiy abstraktsiya va sintez usullari mavzuga oid nazariy yondashuvlarni shakllantirishda, statistik va klaster tahlillar respondentlarning fikrlarini guruhlashda hamda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashda qo'llanilgan. Tanlama kuzatish va ijtimoiy so'rovlar yordamida real holat yuzasidan ishonchli axborotlar yig'ilib, ushbu ma'lumotlar asosida ekonometrik modellash orqali asosiy ta'sirchan omillar aniqlangan. Metodlar uyg'unligi tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlagan va tahlillarning ilmiy asoslanganligini mustahkamlagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda axborot tizimlarining joriy etilishi, katta ehtimol bilan aytish mumkinki, ta'lim infratuzilmasini raqamli transformatsiyalash borasidagi eng yirik yutuqlardan biri hisoblanadi.

CEDEFOP tomonidan kasbiy ko'nikmalar va kasblar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot bilan hamqadam bo'lish uchun faqat kompyuter savodxonligini oshirishning o'zi kifoya qilmaydi. Xususan, so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, AKT bo'yicha kamida o'rtacha bilimlarni talab qiladigan sohalarida ishlayotgan katta yoshdagi ishchilardan nafaqat maxsus texnik ko'nikmalar, balki kognitiv va ijtimoiy-xulqiy ko'nikmalar majmuasi ham talab etiladi.

Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida kasbiy faoliyatni amalga oshirish nuqtai nazaridan mehnat bozori ta'lim tizimi (bitiruvchilar)dan talab qilayotgan zarur bilim va ko'nikmalarning jadal sur'atlarda oshib borishi – mehnat bozoriga chiqayotgan talabgorlarning turli ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishini taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, jamiyatning barcha sohalarida texnika vositalari va axborot texnologiyalarini izchil joriy etishga e'tibor qaratish zamonning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlash lozim.

Bu omil inklyuziv ta'limga qo'yiladigan yangi talablarni belgilab beradi, shuningdek, uni amalga oshirish yo'llarini ham taklif etadi. Natijada, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxslarga ta'lim berish samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlar yuzaga keladi¹⁰.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, inklyuziv ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi¹¹:

- axborot muhitidan o'qish va o'rganish vositasi sifatida foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;
- axborot muhitida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini rivojlantirish;
- axborotlashgan jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil hayot kechirishga tayyor shaxsni tarbiyalash;
- o'z ta'lim traektoriyasini rejalashtirish va amalga oshirish.

6 Burgstahler Sh. Real Connections: Making distance learning accessible to everyone. 2015. URL: http://www.washington.edu/doit/Brochures/Technology/distance_learn.html (date of access: 18.12.2020)

7 Akgul Y. Accessibility evaluation of MOOCs websites of Turkey. Journal of Life Economics. 2018. No. 5. Pp. 23–36. DOI: 10.15637/jlecon.259; Ferati M., Vogel B. Accessibility in web development courses: A case study.

Informatics. 2020. No. 7 (1). P. 8. DOI: 10.3390/informatics7010008; Martin J.L., Amado-Salvatierra H.R., Hilera J.R. MOOCs for all: Evaluating the accessibility of top MOOC platforms. International Journal of Engineering Education. Vol. 32. No. 5-B. Pp. 2374–2383; Ramirez-Vega A., Iniesto F., Rodrigo C. Raising awareness of the accessibility challenges in mathematics MOOCs. TEEM 2017. Proceedings of the 5th International Conference on Technological Ecosystems for Enhancing Multiculturality, ACM, New York, NY, USA. 2017. Article No. 92. DOI:

10.1145/3144826.3145435

8 <https://www.w3.org/WAI/>

9 <https://www.cedefop.europa.eu/en/publications/9121>

10 Рассказов Ф.Д., Мюллер О.Ю., Ротова Н.А. Кластерный подход в инклюзивном образовании лиц с особыми образовательными потребностями // Инклюзивное образование: теория и практика: сб. материалов Международной науч.-практ. конференции. Орехово-Зуево, 2016. С. 247–253.

11 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug'ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning davlat standartlari (asosiy qoidalar)"



Inklyuziv ta'limni raqamlashtirishning ijobiy jihatlari – "alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan shaxslarga jamiyatga muvaffaqiyatli qo'shilish imkonini beradigan kompetensiyalarga ega bo'lishi"da namoyon bo'ladi¹². Jumladan:

raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabalarda texnologik kompetensiyani shakllantirish (darslarga tayyorgarlik ko'rishda turli xil elektron axborot texnologiyalaridan mustaqil foydalanish qobiliyati);
ijtimoiy aloqalarni shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
kommunikativ kompetensiyani shakllantirish (o'qituvchi bilan o'zaro munosabat, suhbat va munozaralarda faol ishtirok etish, turli xil ma'lumotlarni o'rganish vositalarini o'zlashtirish);
barcha o'quvchi-talabalarining veb-kontentdan foydalanishini tavsiflovchi asosiy tushunchalar sifatida veb-qulaylik va universal dizayn tushunchalaridan foydalanish.

Veb-qulaylik (ingl. Web accessibility) — veb-resurslar, veb-texnologiyalar va Internet vositalarini imkoniyati cheklangan shaxslar ham foydalanishi mumkin bo'lgan tarzda ishlab chiqish tartibini nazarda tutadi¹³. Agar talaba veb-sahifa materiallarini mustaqil ravishda idrok eta olsa, kontentda yo'nalish ol olsa, u bilan o'zaro aloqada bo'lishi va veb-shakllarning interaktiv unsurlari yordamida o'z ma'lumotlarini kiritib, fikr-mulohazalarni ifoda eta olsa, ta'lim veb-kontenti qulay deb hisoblanadi.

Mutaxassislar tadqiqotlarida aniqlanishicha, vizual, eshitish, nutq, tayanch-harakat tizimidagi nuqsonlar, kognitiv va nevrologik kasalliklarga chalingan talabalar uchun veb-qulaylik muhim ahamiyat kasb etadi. Veb-qulaylik, shuningdek, hayot va sog'liqqa oid vaqt va yosh xususiyatlari (masalan, singan qo'l, qarilik), atrof-muhit sharoitlari (shovqinli xona, yoritilish), qurilmalar texnik o'lchamlari hamda Internet uzatish tezligi cheklangan shaxslar (kichik ekranli mobil qurilmalar, sust internet aloqasi) uchun ham foydali hisoblanadi¹⁴. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishdagi veb-qulaylik masalalari xorijiy nashrlarda yetarlicha va batafsil muhokama qilingan¹⁵.

Universal dizayn tushunchasi (Universal Design, UD) — veb-qulaylikka nisbatan ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga (2006-yil 13-dekabr) ko'ra, "universal dizayn" — barcha odamlar uchun moslashtirish yoki maxsus dizaynni talab qilmasdan, eng yuqori imkoniyat darajasida foydali bo'lishi uchun mo'ljallangan buyumlar, sharoitlar, dastur va xizmatlar dizaynini anglatadi¹⁶. "Universal dizayn" zarurat bo'lganda, aniq bir nogironlar uchun mo'ljallangan assistiv qurilmalarni istisno etmaydi¹⁷.

Universal dizayn quyidagi yetti tamoyilga asoslanadi:

Foydalanishda tenglik;
Foydalanishda moslashuvchanlik;
Soddalik va intuitiv tushunish;
Ma'lumotni idrok etish imkoniyati;
Xato qilish huquqi;
Katta jismoniy kuch talab qilinmasligi;
Foydalanishda yetarlicha joy va makon mavjudligi.

Afsuski, inklyuziv ta'limda raqamlashtirishni amalga oshirishda quyidagi bir qator muammolar mavjud¹⁸: ularning salohiyatidan kelib chiqqan holda, raqamli virtual muhitda o'quv materialini idrok etishdagi qiyinchiliklar;

talabalarining ta'lim olish jarayonida texnik vositalarning yetishmasligi bilan bog'liq muammolar;
aksariyat amaliy ko'nikmalarni o'zlashtira olmaslik va olingan bilimlarni amaliy faoliyatga integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar;

motivatsiya muammosi — alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan ko'plab talabalar yetarli darajada ichki motivatsiyaga ega emaslar;

12 Фокина М.С. Проблемы и перспективы инклюзивного образования в условиях цифровизации // Студенческий электронный журнал СТРИЖ. 2021. № 2–1 (37). С. 82–84.

13 <https://www.w3.org/WAI/>

14 Burgstahler Sh. Real Connections: Making distance learning accessible to everyone. 2015. URL: http://www.washington.edu/doi/Brochures/Technology/distance_learn.html (date of access: 18.12.2020)

15 Akgul Y. Accessibility evaluation of MOOCs websites of Turkey. Journal of Life Economics. 2018. No. 5. Pp. 23–36. DOI: 10.15637/jlecon.259; Ferati M., Vogel B. Accessibility in web development courses: A case study.

Informatics. 2020. No. 7 (1). P. 8. DOI: 10.3390/informatics7010008; Martin J.L., Amado-Salvatierra H.R., Hilera J.R. MOOCs for all: Evaluating the accessibility of top MOOC platforms. International Journal of Engineering Education. Vol. 32. No. 5-B. Pp. 2374–2383; Ramirez-Vega A., Iniesto F., Rodrigo C. Raising awareness of the accessibility challenges in mathematics MOOCs. TEEM 2017. Proceedings of the 5th International Conference on Technological Ecosystems for Enhancing Multiculturality, ACM, New York, NY, USA. 2017. Article No. 92. DOI:

10.1145/3144826.3145435

16 www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.html

17 www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.html

18 <https://design.ncsu.edu/wp-content/uploads/2022/11/principles-of-universal-design.pdf>



alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabalar ijtimoiy faolligining pasayishi;
alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabalar bilan ishlovchi o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va raqamli ko'nikmalarining yetarli emasligi¹⁹.

Yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlarning samaradorligi alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabalar tomonidan samarali axborot faoliyatiga tayyorlik va qobiliyat, shu jumladan qadriyatlarga bo'lgan munosabat, kasbiy muammolarni hal etishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir bilim, ko'nikma va tajribalarni amalda qo'llashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Inklyuziya sharoitida raqamli ta'lim muhitini o'rganish natijasida, ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlar, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan shaxslar o'rtasida elektron ta'lim orqali o'zaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligi haqida umumiy fikrga kelindi.

Ushbu tahlillardan kelib chiqib, universitet saytini quyidagi imkoniyatlar bilan kengaytirish taklif qilindi: elektron tutor, ovozli darsliklar, raqamli o'quv resurslari, virtual auditoriya va forumlar. Sayt o'quv jarayoniga joriy qilinganda, elektron ta'lim orqali faol hamkorlikka jalb qilingan va o'quv jarayonini tashkil etishda ishtirok etgan alohida ta'lim ehtiyojiga ega talabalarining o'qishga bo'lgan ishtiyoqi oshgani kuzatildi.

O'zbekistonda nogironligi mavjud shaxslarning jamiyatda mustaqil kun kechira olmasligi esa, o'z navbatida ijtimoiy sohada davlatning islohotchilik o'rnini mustahkamlashni talab qiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yish va inklyuziyani milliy manfaatlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, tegishli tavsiyalar asosida amalga oshirish lozim. Bunda nogiron yoshlarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash yo'lida mavjud to'siqlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish zarur. Yuqorida tilga olingan jihatlar yuqori kirish to'siqlarini keltirib chiqaradi va shu bilan bir qatorda, ta'lim xizmatlarini marketing vositalari va usullaridan foydalanishga, tadqiqot olib borish imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi.


Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari, jumladan inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish borasida ta'lim klasterini yo'lga qo'yishga asoslangan ta'lim xizmatlarini maqbullashtirish algoritmi tavsiya qilinadi.

Tajriba-sinov natijalari asosida elektron ta'lim orqali alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud talabalarining axborot kompetensiyasi tarkibiy qismlarining shakllanish darajasi dinamikasini tahlil qildik.

Darajalarni baholashda ushbu kompetensiyalarning quyidagi tarkibiy qismlariga mos keladigan mezonlar aniqlandi: motivatsion-qadriyat, kognitiv va faoliyat komponentlari. Har bir mezon uchun shakllanish darajalarini tavsiflovchi mezonlar belgilandi.

Tadqiqotlarimizda tajriba boshida va uning oxirida axborot kompetensiyasini shakllantirish ko'rsatkichlari taqqoslandi.

Nazorat va eksperimental guruhlar bo'yicha aniqlash va baholash bosqichlarining natijalari 1-rasm va 2-rasmlarda ifodalangan.




1-rasm. Elektron ta'lim (nazorat guruhi) orqali alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabalar axborot kompetensiyasi komponentlarini shakllantirish darajalari dinamikasi²⁰

19 Шадчин И.В. Инклюзивное профессиональное образование в условиях его цифровизации // Инновационное развитие профессионального образования. 2020. № 4 (28). С. 115–145.

20 Mualliflar tadqiqotlari



Pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligi axborot kompetensiyasining shakllanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning statistik yaxshilanishi bilan o'z tasdig'ini topdi. Olingan eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar elektron ta'lim orqali alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan talabalar axborot kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.



2-rasm. Elektron ta'lim (eksperimental guruh) yordamida alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud talabalar axborot kompetensiyasi tarkibiy qismlarini shakllantirish darajalari dinamikasi²¹

Elektron ta'lim va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda, nogiron va imkoniyati cheklangan talabalarni o'qitish jarayonini tashkil etish uchun quyidagi komponentlardan foydalanish mumkin: elektron ta'limni tashkil etish vositalari, ta'lim kontenti, pedagogik o'zaro ta'sir va ta'lim natijalarini baholash.

Mazkur komponentlarning mazmuni inklyuziv oliy ta'limning mavjudligi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda, afsuski, aksariyat oliy ta'lim muassasalari nogironlar va alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud shaxslarni o'qitish uchun onlayn kurslar, jumladan milliy ochiq ta'lim platformasida (HEMIS) joylashtirilgan kurslardan foydalanmaydilar.

Masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda nogiron va alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud talabalar uchun dars berishda, ularning mavjud sog'liq cheklovlariga qarab, ma'lumot olish va uzatishni ta'minlaydigan, ya'ni virtual ta'lim muhitining universal dizayn talablariga javob beruvchi masofaviy o'qitish tizimlari va videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Virtual ta'lim muhitida amalga oshiriladigan ta'lim faoliyatining turlari keng imkoniyatlarni o'z ichiga oladi va quyidagilardan iborat:

turli platforma formatlarida o'tkaziladigan ma'ruzalar (ma'ruza-vebinar, interaktiv teskari aloqali ma'ruza, ma'ruza-forum, ma'ruza-taqdimot va boshqalar);

amaliy va seminar mashg'ulotlari (vebinar, munozara, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari va boshqalar);

yakka tartibdagi va guruhli konsultatsiyalar (elektron pochta, masofaviy ta'lim tizimidagi forumlar, messengerlar);

talabarning mustaqil ishi, jumladan interfaol ta'lim kontentlari, elektron kutubxona tizimlari, onlayn kurslar bilan ishlash;

joriy va oraliq nazoratlar.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'llaniluvchi masofaviy ta'lim tizimlarining qulayligini oshirish uchun, ularga maxsus imkoniyatlarni taqdim qilish maqsadida modullar yoki pluginlarni joylashtirish tavsiya etiladi.

Masalan, Moodle masofaviy o'qitish tizimida Accessibility (maxsus imkoniyatlar) bloki ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ammo oliy ta'lim muassasalari tomonidan kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Shu bilan birga, bugungi kunda mahalliy oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalda qo'llanilayotgan HEMIS platformasini takomillashtirib borish, uni faqat ro'yxatga olish va qayd qilish funksiyasidan ta'lim berish funksiyasiga o'tkazish zarur.

21 Mualliflar tadqiqotlari.



Masofaviy ta'limni tashkil etish vositalari va foydalaniladigan ta'lim resurslari, jumladan salomatligida turli xil nuqsonlar mavjud bo'lgan talabalar uchun ochiq bo'lgan milliy ochiq ta'lim platformasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat oliy ta'lim muassasalari Moodle masofaviy o'qitish tizimidan foydalanadilar.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan webinar va videokonferensiyalar tashkil etishda ko'plab platformalardan foydalaniladi. Bunday platformalar qatoriga Zoom, Microsoft Teams, BigBlueButton keng qo'llaniladi. Shuningdek, Mirapolis, Adobe Connect Pro, Skype, Google Meet, Webinar.ru, Open Meteeng, TrueConf platformalari ham mavjud.

Talabalar tomonidan raqamli xizmatlar va yordamchi texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmasligining asosiy sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

o'qitishda foydalanilishi mumkin bo'lgan maxsus texnik vositalar va yordamchi axborot texnologiyalarining reabilitatsion imkoniyatlari haqida yetarli darajada xabardor emaslik;

ulardan ta'lim jarayonida foydalana olmaslik;

ularni o'zlashtirish borasida motivatsiyaning pastligi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan masofaviy o'qitish sharoitida ikki asosiy vazifa hal qilinishi lozim:

Nogiron yoki alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabani ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan shaklda ma'lumotlar bilan ta'minlash;

Nogiron yoki alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabani o'qituvchilar va boshqa talabalar bilan mavjud vositalar orqali o'zaro munosabatlarga jalb qilish.

Ushbu muammolarni maxsus texnik vositalar va assistiv vositalardan foydalanmasdan turib hal qilish juda qiyin hisoblanadi.

Ko'zi ojiz talabalar uchun ko'rishni kuchaytirish vositalari hamda vizual ma'lumotlarni audio va taktil signallarga aylantirish vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda talabalar o'zlarining tiflo axborot qurilmalaridan ham foydalanishlari mumkin. Buning uchun mazkur qurilmalar ta'lim muassasasida mavjud tiflo kompyuterlar, Brail displeyi va boshqa vositalar bilan mos tushishi zarur bo'ladi.

Eshitish qobiliyati zaif talabalar uchun imo-ishora vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini maqbullashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Imo-ishora vositalaridan foydalanish, shuningdek, rivojlanishdagi ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish yoki kamaytirish, yo'qolgan yoki buzilgan eshitish funksiyasini qoplash imkonini beradi.

Raqamli inklyuziya — bu insonlarning alohida xususiyatlarini qanday hisobga olish va raqamli dunyoda barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha muhim qaror qabul qilishdir. Shu sababli, zamonaviy ta'limda inson asosiy qadriyat sifatida tan olinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'limni rivojlantirishda raqamli texnologiya vositalaridan samarali foydalanish istiqbollarini tadqiq qilish asosida quyidagi xulosa shakllantirildi: oliy ta'limning davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, inklyuziv ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish axborot muhitidan o'qish va o'rganish vositasi sifatida foydalanish layoqatiga ega bo'lish, axborot muhitida mehnat faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish, axborotlashgan jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil hayot kechirishga tayyor shaxsni shakllantirish, o'z ta'lim traektoriyasini rejalashtirish va amalga oshirish kabi vazifalarni hal etishga imkon beradi. Inklyuziya sharoitida raqamli ta'lim muhitining holatini tahlil qilish mazkur muhitni rivojlantirish uchun o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud shaxslarning elektron ta'lim orqali o'zaro ta'sirini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Elektron ta'limda masofaviy o'qitish jarayonining barcha ishtirokchilarining pedagogik o'zaro ta'sirining turli usullari va texnologiyalari orqali sinxron va asinxron rejimda ishlashning kombinatsiyasini, shuningdek, guruhli va yakka tartibdagi ta'lim shakllarini ta'minlash muhim hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan yoshlarni mehnat bozori ishtirokchilari tarkibiga kiritish ularning kasbiy reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyalashuvi samaradorligining asosiy ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Mahalliy bozorda oliy ta'lim muassasasini marketing tamoyillari asosida boshqarish samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarini tashkil etish muhim o'rin egallaydi, bunday yondashuv esa oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Sirdaryo viloyatida istiqomat qiluvchi imkoniyati cheklangan talabalar sonining hududdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirishiga ta'sir qiluvchi ko'p omilli ekonometrik model tahlil natijalariga ko'ra, 2027-yilga qadar ularning mahalliy OTMlarga hujjat topshirishi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lishi prognoz qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akgul, Y. (2018). Accessibility Evaluation on MOOC Websites of Tigkeu. *Journal of Life Economics*, No. 5, pp. 23–36. <https://doi.org/10.15637/jlecon.259>
2. Andreasen, A. R. (Ed.). (2006). *Social Marketing in the 21st Century*. Sage.



3. Rastrana, A. N., et al. (2017). *Social Marketing Interventions for Neglected Tropical Diseases (NTDs): A Systematic Review Protocol*.
4. Szablewska, N., & Kubaski, K. (2019). Rights-Based Approach to the Social Good in Social Marketing. *Journal of Business Ethics*, Vol. 155, pp. 871–888.
5. Bruhn, M., & Tilmes, J. (1989). *Social Marketing*. Stuttgart.
6. Vohoppek, A., Samilleri, A. F., Griga, D., Mühlesk, K., Miklavich, K., & Orr, D. (2010). *Evolving Diversity: An Overview of Equitable Access to Higher Education in Europe*. MENON Network.
7. Bautista-Puig, N., et al. (2021). Unveiling the Research Landscape of Sustainable Development Goals and Their Inclusion in Higher Education Institutions and Research Centers: Major Trends in 2000–2017. *Frontiers in Sustainability*, Vol. 2, Article 620743.
8. Muller, B., & Reinhardt, J. (1991). *Neural Networks: An Introduction*. Berlin: Springer-Verlag.
9. Mokronosov, A. G., et al. (2010). *Malakali kadrlar tayyorlashda mintaqaviy iqtisodiyot ehtiyojlarini bashorat qilish* [Forecasting the Needs of the Regional Economy in the Training of Qualified Personnel]. Yekaterinburg: RSVPU.
10. Marginson, S. (2016). The Worldwide Trend to High Participation Higher Education: Dynamics of Social Stratification in Inclusive Systems. *Higher Education*, Vol. 72, pp. 413–434. <https://doi.org/10.1007/s10734-016-0016-x>
11. Mahg, D., Kalogeras, N., & Odekerken-Schröder, G. (2013). A Service Science Approach for Improving Healthy Food Experiences. *Journal of Services Management*, Vol. 24(4), pp. 435–471.
12. Suritt, S., Costello, D., Rasiti, M., & Eagle, L. (2016). *Social Marketing Strategy for Low SES Communities: Position Paper*. National Centre for Student Equity in Higher Education, Perth.
13. Carins, J. E., & Rundle-Thiele, S. (2013). Eating for the Better: A Social Marketing Review (2000–2012). *Public Health Nutrition*, pp. 1–12.
14. Chandy, K. T., et al. (1965). Proposals for Family Planning Promotion: A Marketing Plan. *Studies in Family Planning*, Vol. 1(6), pp. 7–12.
15. Lazzari, M. (2016). Digital Storytelling for Inclusive Education: An Experience in Initial Teacher Training. In *Proceedings of the 10th International Conference on e-Learning*, Funchal, Portugal, July 1–2, pp. 199–203.
16. Basil, D. Z., Diaz-Meneses, G., & Basil, M. D. (2019). *Social Marketing in Action: Cases from Around the World* (1st ed.). Springer.
17. Freire, S., et al. (2020). The Potential of Distance Education for the Inclusion of Students in Higher Education. In *Determining the Reliability of Online Assessment and Distance Learning*, Handbook of Research, Negsheu, RA, USA, pp. 379–401.
18. French, J., & Blair-Stevens, S. (2006). *Social Marketing National Benchmark Criteria*. UK: National Social Marketing Centre.
19. French, J. (2017). The Importance of Segmentation in Social Marketing Strategy. In *Segmentation in Social Marketing: Process, Methods and Application*, pp. 25–40.
20. Russell-Bennett, R., Drennan, J., & Raciti, M. (2016). *Social Marketing Strategy for Widening Tertiary Education Participation in Low SES Communities: Field Research*. Brisbane: Queensland University of Technology.
21. Salmi, J. (2018). *All Around the World – Higher Education Equity Policies Across the Globe*. The Lumina Foundation.
22. Salmi, J. (2017). *The Tertiary Education Imperative: Knowledge, Skills and Values for Development*. Springer.
23. Schalock, R. L., Gardner, J. F., & Bradley, V. J. (2007). *Quality of Life for People with Intellectual and Other Developmental Disabilities: Applications Across Individuals, Organizations, Communities, and Systems*. American Association on Intellectual and Developmental Disabilities.
24. Opoku, M. P. (2020). Paper Commissioned for the 2020 Global Education Monitoring Report: *Inclusion and Education – Parental Attitudes Towards Inclusive Education*.
25. Tarr, A., & Sroswood, F. (2013). From the 4Rs to SOM-SM: Reconfiguring the Social Marketing Mix. *Journal of Social Marketing*, Vol. 3(3), pp. 206–222.
26. Truong, V. D., Pham, Q., & Saunders, S. (2020). Stakeholder Involvement in Social Marketing Anti-Smoking Interventions. In *Stakeholder Involvement in Social Marketing*, Routledge, pp. 39–54.
27. Russell-Bennett, R., Drennan, J., & Raciti, M. (2016). *Social Marketing Strategy for Widening Tertiary Education Participation in Low SES Communities: Field Research*.
28. Herbaut, E., & Geven, K. (2020). What Works to Reduce Inequalities in Higher Education? A Systematic Review of the (Quasi-)Experimental Literature on Outreach and Financial Aid. *Research in Social Stratification and Mobility*, Vol. 65, Article 100442.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
